



IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI

t.f.n., dots. Jomonqulova Fazilat
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
ORCID: 0009-0008-9057-9648
jamanqulovaf72@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi tufayli paydo bo'lgan raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy jarayonlarga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, elektron tijorat, Fintex, katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va bulutli texnologiyalar ko'rib chiqiladi. Ushbu texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va bozorga kirishni osonlashtirish orqali iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, maqolada raqamli tengsizlik, kiber xavfsizlik va ma'lumotlar xavfsizligi kabi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar ham muhokama qilinadi. Maqola yakunida raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlarini muvozanatlash orqali barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, fintex, sun'iy intellekt, kiber xavfsizlik.

РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ

к.т.н., доц. Жомонкулова Фазилят
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье анализируется роль цифровой экономики в развитии современной экономики. Цифровая экономика, возникшая благодаря бурному развитию информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), оказывает глубокое влияние на глобальные экономические процессы. В статье рассматриваются ключевые компоненты цифровой экономики, включая электронную коммерцию, Fintech, аналитику больших данных, искусственный интеллект и облачные технологии. Эти технологии вносят значительный вклад в экономический рост за счет повышения производительности, создания новых рабочих мест, стимулирования инноваций и облегчения доступа к рынкам. При этом в статье также рассматриваются вопросы, связанные с развитием цифровой экономики, такие как цифровое неравенство, кибербезопасность и безопасность данных. В заключение статьи предлагаются пути достижения устойчивого и инклюзивного экономического роста путем балансирования положительных и отрицательных аспектов цифровой экономики.

Ключевые слова: электронная коммерция, финтех, искусственный интеллект, кибербезопасность.

THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN ECONOMIC DEVELOPMENT

PhD, assoc. prof. **Jomunkulova Fazilat**
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. *This article analyzes the role of the digital economy in the development of the modern economy. The digital economy, which has emerged due to the rapid development of information and communication technologies (ICT), has a profound impact on global economic processes. The article examines key components of the digital economy, including e-commerce, Fintech, big data analytics, artificial intelligence and cloud technologies. These technologies significantly contribute to economic growth by increasing productivity, creating new jobs, stimulating innovation and facilitating market access. At the same time, the article also discusses issues related to the development of the digital economy, such as digital inequality, cyber security and data security. The article concludes by proposing ways to achieve sustainable and inclusive economic growth by balancing the positive and negative aspects of the digital economy.*

Keywords: *e-commerce, fintech, artificial intelligence, cyber security.*

Kirish.

XXI asrda dunyo iqtisodiyotining rivojlanishida raqamli texnologiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot – bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) asoslangan yangi iqtisodiy model bo'lib, u iqtisodiyotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Uning roli shunchalik kattaki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish strategiyasining muhim qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish masalalari bugungi kun talabidir.

Adabiyotlar sharhi.

Ma'lumki, AQSH texnologik innovatsiyalarning, shu jumladan raqamli texnologiyalarni samarali rivojlantirib kelayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. AQSHda ilmiy-texnik innovatsiyalar (II mashinali o'qitish, blokcheyn, Internet-a'zolar va h.k.) asosan yangi texnologiyalar yaratish va ularni yangillab turish mamlakat iqtisodiyotini harakatlantirishda muhim o'rinni egallamoqda. Google, Apple, Amazon, Facebook va Microsoft kabi katta texnologik kompaniyalar ushbu prosessda yetakchi kompaniyalar bo'lib kelmoqda.

AQSHda innovatsion hamkorlik aylanishining eng zarur asoslaridan biri startap-ekosistemesi. Xususiylar va davlat tomonidan yangi startap loyihalarni moddiy tomonlama qo'llab-quvvatlash natijasida raqamli texnologiyalar samarali rivojlanib, virtual dunyoda turli buyumlar va xizmatlar ko'rsatish evaziga 2020 yilda Google 161,9 mlrd., Apple 260,2 mlrd., Amazon 386 mlrd., Facebook 70,7 mlrd. va Microsoft 143 mlrd.¹ AQSH dollari miqdorida pul aylanmasiga ega bo'lgan.

¹ <https://www.worldbank.org/en/home>

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatni raqamli infratuzilma egallaydi. AQSHda viloyatlar bo'yicha qulay internet tizimlari, mobil tizimlar va bulutli xizmatlar infratuzilmasi yaxshi rivojlangan. Shuning uchun tadbirkorlik va biznes sohasi AQSHning barcha hududlarida teng rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Rossiyalik olim Dalning (2022) lug'atida xizmat tushunchasi quyidagicha talqin etilgan: Xizmat ko'rsatish, yordam, imtiyoz, ko'mak, ko'nglini topmoq, istagini bajo keltirmoq. Biroq ushbu lug'atlarda keltirilgan talqinlarda "xizmat" tushunchasining mohiyati to'liq ifodalanmagan.

Rossiyalik olim Ojegov (1985) tahriri ostida chop etilgan rus tili gramatik lug'atida "xizmatlar" bu "naf, foyda keltiradigan harakat, boshqalarga yordam deb hisoblanadi" degan fikr ilgari surilgan.

Amerikalik iqtisodchi Kotler (1992) o'zining "Marketing asoslari" nomli kitobida "xizmatlar – bu ob'ektni sotish jarayonida o'z manfaatini qondirish, muayyan bir naf olish uchun qilingan harakt" degan holda, o'zining fikrini davom ettirib, "ishlab chiqarishda xizmatlar moddiy ko'rinishdagi tovarlar bilan bog'liq bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin", deb hisoblagan.

Shiray (2003) "Xizmat – alohida olingan inson yoki bir butun jamiyatni qandaydir ehtiyojini qondiruvchi, natijalari samarali foydada gavdalanuvchi, maqsadli mehnatning faoliyatidir".

Mashhur marketolog-nazariyotchi Levitt: (2016) "Har qanday soha, xoh u katta bo'lsin, xoh kichik bo'lsin, o'zida xizmatlarni nomoyon etadi", - deydi. Levittning (2016) fikrini davom ettirgan holda Kotler (2006) uni quyidagicha izohlaydi: "Aslida tovar xaridori hisoblanmish mijoz unga taklif etilgan tovar ko'rinishidagi xizmatni xarid etadi... Pirovard natijada hammasi xizmat ko'rsatishga borib taqaladi", - deb izoh berdi. Nikolaychukning (2005) ta'kidlashicha: "Hamma sohada xizmatlar yaratiladi, ammo hamma sohada ham moddiy tovarlar yaratilmaydi (bank, transport, konsalting va boshqalar)".

Shakirov va Kiselyovlar (2013) ta'kidlaganidek, "mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko'rsatish zanjirining asosiy bo'g'inlari telekommunikatsiya xizmatlarini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va xizmatni mavjud bo'lgan davrda qo'llab-quvvatlaydigan xizmat ko'rsatuvchi tashkilotdir".

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot ishida bilish nazariyasining mantiqiy yondashuv, induksiya va deduktsiya, qiyosiy va omilli taxlil, zamon va makon, taqqoslash, monografik ko'zatish kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" terminini amaliyotga kiritdi.

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi. Mamlakatimizda ma'muriy tartibotlardan o'tishni soddalashtirish, aholi turmushi sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan elektron hukumatni, shu jumladan davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirish borasida izchil choralar ko'rilmogda. Shu bilan birga, raqamlashtirishni ta'minlashga va raqamli iqtisodiyotga o'tishga to'sqinlik qilayotgan qator hal qilinmagan muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmogda.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi

axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiriq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi. «Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – tranzaksion sektorning o'sishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o'rin tutishini bildiradi. Raqamli iqtisodiyot ko'z o'ngimizda yaralmoqda hozir butun dunyo bo'ylab yangi servislar va biznes modellarni yaratish uchun IT instrumentlardan foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi bo'lgan kompaniyalarga kuchli raqobat tug'dirmoqda. Prognozlarga ko'ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», addiktiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog'liq bo'lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko'lam ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolarmuloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, Respublikamiz iqtisodiyotini samarali rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim va ustuvor ahamiyatga ega. Ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot yo'lga bosqichma-bosqich chiqish uchun asosiy shart va omillar sifatida ko'rsatilmoqda:

- axborotlashtirish va davlat boshqaruvi organlari hamda munitsipal xizmatlarni integratsiyalash hisobiga elektron hukumat va raqamli shahar konsepsiyalarini tatbiq etish;
- yangi texnologik avlodagi mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish (pilotsiz avtomobillar va boshqalar singari);
- o'ziga xos bezak va qurilish materiallari yordamida «aqlli» va ekologik uylarni barpo etishga oid g'oyalarni amalga oshirish;
- autsorsing, o'zini band etish va boshqalar orqali bandlikning muqobil shakllarini keng targ'ib qilish;

- muayyan vazifalarni bajarish uchun ishchi-frilanserlarni izlashga xizmat qiladigan professional tarmoqlarni yaratish.

Yuqoridagilar barchasi biznesga ishlab chiqarish va boshqaruvda tovar va elektron xizmatlar integratsiyalanadigan zamonaviy platformalar yordamida xarajatlarni qisqartirishga imkoniyat beradi. Birinchi galda bu masala xizmatlar buyurtmasi integratsiyasi, resurslardan birgalikda foydalanish, kontragentlarni tanlash, elektron savdoni yuritish, to'lovlar va boshqalarga tegishlidir.

Texnologik raqamli muhit – bu yuridik va jismoniy shaxslar hamkorlikdagi faoliyat uchun butunlay yangi muloqotni yo'lga qo'yadigan «akvarium» hisoblanadi. Axborot texnologiyalari korxonalarga butunlay yangi, yanada jadal ish sur'atlarini o'zlashtirish hamda xizmat va mahsulotlar shaklini xilma-xillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, tadqiqotchilar qisqa saqlanadigan mahsulotlarning bozorga chiqarilishi haqida ham gapirishmoqda. Iqtisodchilarning fikriga ko'ra, ayni vaqtda bu kabi o'zgarishlar natijasida qo'shimcha qiymatni chiqarib olish amaliyotiga asoslangan iqtisodiyot hamkorlik va manfaatlarni baham ko'rish («sharing-economy») iqtisodiyotiga almashmoqda. Bu esa bozordagi raqobat o'z o'rnini o'zaro manfaatli kooperatsiyaga va hamkorlikka faol bo'shatishi, shu bilan birga, vertikal muloqotdan o'zaro teng munosabatlar va bir-birini to'ldiruvchi xizmatlarga o'tishiga umid uyg'otadi. Taxminlarga ko'ra, bu servislar sonining ortishi va xizmatlarga doir elektron savdo hajmining o'sishida o'z aksini topadi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Jamankulova, E. F., Ismailova, Z. A., & Nizomov, M. Q. (2021). *The Notion Of Information And Its Significance In The State Economy. Экономика и социум, (8 (87)), 26-29.*

Jamankulova, E. F., Ismailova, Z. A., & Nizomov, M. Q. (2021). *The Notion Of Information And Its Significance In The State Economy. Экономика и социум, (8 (87)), 26-29.*

Jamankulova, F., & Ergasheva, L. F. (2024). *Information analytics and systems to increase decision making. International journal of trends in business administration, 14(1).*

Jamankulova, F., Fazliddin, S., & Tolmasjon, Q. (2024). *Basic principles of artificial intelligence. International Journal of Engineering Mathematics (Online), 6(1).*

Киселев С.В., Шакиров М.М. (2013) “Содержание, характеристика и классификация телекоммуникационных услуг как объекта исследования” [Текст]: Казанский национальный исследовательский технологический университет, статья в журнале - научная статья Год: Страницы: 311-316.

Даль В.И. (1882) Толковый словарь великорусского языка. 2-е изд. –М., Т. IV. С.512.

Котлер Ф. (1992) Основы маркетинга. М. Прогресс. -734с.

Котлер Ф. (2006) Маркетинг-менеджмент // Экспресс-курс. 2-е изд. С.301.

Николайчук В.Е. (2005) Маркетинг и менеджмент услуг // Деловой сервис. Спб.: Питер, С.608.

Ожегов С.И. и. Др. (1991) Грамматический словарь русского языка. –М.: Русский язык. – 432стр.

Теодор Левитт. (2016) Глобализация рынков. Маркетинг для практиков. Дата обращения: 28 декабря 2015. Архивировано 21 января.

Ширай В.И. (2003) Мировая экономика и международные отношения: Учебное пособие. –М.: Дашков И. К. С.226.